

**ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH HAMDA
ULARNING BUGUNGI ILM-FAN UCHUN AHAMIYATI**

Axmedova Xilolaxon Mamatumarovna

Asaka tumani 10- umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish hamda ularning bugungi ilm-fan uchun ahamiyati haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, innovatsion texnologiyalar, yangilik, ilm-fan, jamiyat taraqqiyoti, interfaol metodlar, metodika.

Bugungi ta'lim jarayoni vaqtida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni mobaynida foydalanishga bo'lgan intilish, e'tibor kundan – kunga ortib bormoqda. O'qituvchi ushbu jarayonda o'quvchining shaxsiy takomillanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga muhit yaratadi va shuning bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini ham bajaradi. Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo`lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo`lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo`ladilar. Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham ijodiy fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Bularni amalga oshirishda o'qituvchining darslar va sinfdan tashqari mashg`ulotlar jarayonida interfaol metodlardan unumli foydalana olishi ham muhim o`rin tutadi. Interfaol metodlardan amalda foydalanishda quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim: - o`quvchi o`zi o`rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o`rgata olmaydi; - o`qituvchi o`quvchilarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi ya`ni yapon xalq maqoli misolida olsak, o`qituvchi baliq tutib bermaydi, balki unga

baliq tutishni o`rgatadi; - bilim borliqdan ko`chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi kabilar. Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, shuningdek o`qituvchi faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan keng foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo`lib fikrlash deb yuritiladi, ya`ni pedagogik ta`sir qilish metodlari bo`lib ta`lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu metod va uslublarning o`ziga xosligi shundan iboratki, ular pedagog va o`quvchilarning birgalikda faoliyat ko`rsatishi yordamida amalga oshiriladi. Ma'lumki, ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yuzdan ortiq turi mavjud bo`lib, ularning ayrimlari tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija ko`rsatgan. Keng qo'llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqdimot”, “Blitso’rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda keng ko'lamli natijalarga erishish mumkin. Darsning o’tilgan mavzuni so’rash jarayonida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” uslublarini, yangi mavzuni tushuntirish vaqtida “Insert”, “Pinbord”, “Zinamazina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash jarayonida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil yetuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” texnologiyalarini dars mobaynida qo’llash dars samaradorligini ta’minlab, o’quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. «O‘qitish — ikki barobar o‘qish demakdir». Demak, har bir o‘qituvchimurabbiy bu o‘gitga amal qilar ekan, aslo kam bo‘lmaydi. Eng katta farq esa hozirgi kun o‘qituvchisining ish faoliyati innovatsion axborot texnologiya dunyosi, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniborligida. O‘qituvchilik kasbining qator mas’uliyatlarini sanab o‘tish mumkin. Bular qatoriga bola ruhiyatini o‘rganish, undagi salbiy jihatlarga qarshi kurasha olish, o‘quvchilari qalbida o‘z faniga qiziqish uyg‘otish barobarida Vatanga, oilaga, otaonaga, do’stlariga nisbatan mehr-muhabbatli qila olish, har bir o‘quvchining oilaviy sharoitini o‘rganib, otaonasi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabilarni kiritish mumkin. Biz o‘qituvchilar yosh avlod ongiga shakl beruvchi, ularni yuksak pog‘onalarga olib

chiquvchi sharaflı kasb egalari ekanligimizni ham unutmasligimiz kerak. Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi har bir inson uchun hayotda bilishi shart hisoblangan to‘g‘ri so‘zlash, ifodali o‘qish, o‘z fikrini mustaqil bildira olish, og‘zaki va yozma nutq hamda savodxonlikning imkon qadar yuqori darajasini egallashlarida ko‘prik vazifasini bajaradi. Bu ham uning zimmasidagi mas’uliyatning bir ko‘rinishidir. Ona tili fanini o‘qitish jarayonini yanada takomillashtirish borasida o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda.Jumladan: -ona tili fanini o‘qitishda asosan nazariy ma’lumotlarga e’tibor berilgan bo’lib, o‘quvchining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga yetarlicha diqqat-e’tibor qaratilmagan; -ona tili fanida o‘qitiladigan mavzular sinflar kesimida tahlil qilinganda, o‘quvchi uchun murakkab bo’lgan ko’plab grammatik mavzularning borligi; ona tili fanini hayot bilan bog’lab o’tishga, ona tilimizning boy sharoitlaridan yetarlicha foydalangan tarzda, o‘quvchilarga mazmunli, sodda va qiziqarli shaklda yetkazib berishga diqqat-e’tibor berilmagan; - o‘quvchilar darsliklardagi mavzularni o‘zlashtirishida intilish, ishtiyoq, maylni paydo qiladigan, mantiqiy, kreativ, ijodiy fikrlashga chorlovchi mashqlar,topshiriqlar bugungacha o‘z aksini topmagan; umumiyl o’rta ta’lim maktablarida ona tili fanini o‘qitishning yangi, samarali metodlari, ilg’or pedagogik texnologiyalarini keng joriy etish talab darajasida emas; -ona tili fanining ilmiy metodik ta’minoti yetarli darajada ishlab chiqilmagan; - o‘qituvchi va pedagoglarning metodik ta’minotini takomillashtirish, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari va mutaxassislar uchun masofadan o‘qitish kurslari keng joriy qilinmagan; -mavjud oliy ta’lim muassasalarida ona tili fani yo’nalishida o‘qituvchi, pedagog, kadrlarni tayyorlash sifati hozirgi kun talablariga xos kelmasligi ona tili fanini o‘qitishni tubdan qayta ko’rib chiqish va zamon talabiga mos tarzda yangilashni taqozo etmoqda. Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishdan assosiy maqsad, o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni sezish, tahlil qilish ona tili darslarini yanada kengaytirish ushbu yo’lda innovatsion texnologiya va metodlardan foydalanishni kuchaytirishdir.Ta’lim jarayonidagi bugungi o‘zgarishlar tufayli bilim olishning yangi usullari paydo bo’lmoqda. Bu usullar orqali yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llash, hozirgi davrimizning dolzarb talablaridan

birdir. Yangi pedagogik texnologiya vositasida milliy maktab yaratish, har bir fan o'qituvchisidan katta mehnat talab qiladi. Ayniqsa ona tili va adabiyot o'qiituvchilari zimmasidagi mas'uliyat yuki yanada ko'proq bo'lib qoldi. Shunga ko'ra ijtimoiy ong ko'rinishi bo'lgan adabiyotni xususan badiiy adabiyotni yosh avlod ongiga singdirish, bu orqali ularda milliy rujni shakllantirish bugungi ta'lim jarayonining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Badiiy adabiyot orqali yoshlarimizda so'z san'atiga bo'lgan muhabbatni shakllantirish va o'stirish hozirda ta'limning asosiy masalalaridan bo'lib bormoqda. Bugungi kunda ona tili va adabiyot o'qituvchisining bosh maqsadi o'quvchiga badiiy asarni o'qitib, uni idrok etishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish deb hisoblayman. Fan-texnikaning tezkor rivojlanishi bugungi kun o'quvchisini badiiy adabiyotdan uzoqlashtirib borayotgani hech kimga sir emas. Buyuk ijodkorlarni yetishtirish uchun esa yosh avlodni bolalik davridanoq kitobga muhabbatli qilib tarbiyalash darkorligini aytib o'tishni lozim deb topdim. Adabiyotni o'qish, tushunish, so'zning mo'jizaviy qudratini his etish esa o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi. Bu mas'uliyatli vazifa to'g'ridan-to'g'ri adabiyot o'qutuvchisining zimmasiga tushadi. Shunday ekan mazkur fandan dars berayotgan har bir o'qituvchi o'qitishning yangi pedagogik usullardan hamda AKT dan doimiy ravishda foydalanib borishi talab etiladi. Ayniqsa adabiyot xonasida televizor, audio texnika, kompyuterlar bilan bir qatorda dastur asosida o'qitiladigan shoир, yozuvchilar hayoti aks etgan hamda ularning asarlari asosida suratga olingan filmlar, multimediyalar mavjud bo'lishi talab etiladi. Har bir shoир, yozuvchi hayoti-ijodi bilan o'quvchi tanishtirilar ekan uning hayoti yoki asari asosida suratga olingan videotasmadan lavha namoyish etish talabga joiz deb hisoblayman. Yangi ped texnologiya usullarining eng asosiyalaridan biri hozirgi kunda turli o'yinlardan foydalanib o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirish ekan, mактабning 5-11- sinflarida ko'proq nazm darslarini tashkil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.



Yangi pedagogik texnologiya asosida yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash va ta'lif berish uchun turli-tuman dars usullari hamda shakllaridan foydalanish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Har bir pedagog darslarni yangi pedagogik texnologiya asosida noananaviy dars shakllaridan, turli texnik vositalaridan foydalangan holda olib borishga harakat qilsa, albatta yaxshi natijalarga erishadi deb o'ylayman. Texnika asri deb atalayotgan hozirgi davrda darslarni ham uning yordamida olib borish maqsadga muvofiq. 5-11-sinf o'quvchilari adabiyot darslarida o'quvchilar uchun tushunarli bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalardan: "BBB" jadvali, "Insert" usuli, "Toifalash" jadvali "Venn" diogrammasi, "Nilufar guli", "Adabiyot olamida sayohat", "Axborot uzatish" yoki "Zanjir" usuli, "Bilimdon daraxti", "Adabiyot cho'qqisi", "Klaster", "Bilimlar qasriga sayohat", "Sehrli qalamchalar", "Telemuloqot" usuli va hokazo bunday usullarni adabiyot darslarida qo'llash yaxshi samara beradi. Bundan maqsad darslarni yangi pedagogik texnologiya asosida olib borish va ta'lifning texnik vositalaridan foydalanish, o'quvchilarga darslarni tushunarli va qiziqarli qilib olib borishda yaxshi samara beradi. Masalan: har bir adabiyot darsida uyga vazifa sifatida BBB- ya'ni Bilaman, Bilib oldim, Bilishni xohlayman jadvalini uyga vazifa sifatida berib yuborilsa, o'quvchi darsda nimalarni bilib olgan-u, nimalarni bilishni xohlashini yozib keladi. Shunda o'qituvchi o'quvchi bilishni xohlashi kerak bo'lgan ma'lumotni o'quvchiga etkazadi natijada yana bir yangi ma'lumot o'quvchiga etkaziladi. Bu usul albatta samara beradi deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. — T.: RTM, 2000. — 46 b.
2. G'ulomova M. X., Sobirova N. K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lif samaradorligini oshirish usullari // Innovatsiya o'quv jarayonida (tezislar to'plami). — T.: 2009. — 106 b.
3. U. Masharipova va b.q. Ona tili 4-sinf o`qituvchilari uchun ilg`or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish.
4. Rafiyev A. , G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , “Sharq”, 2013.
5. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. —